



## THE ISSUE OF GEOGRAPHICAL STRUCTURE AND SEPARATION FROM EARLY MEDIEVAL NAKSHAB

Qurbonova Maryam<sup>1</sup>

<sup>1</sup>2nd year master of the department "History of Uzbekistan" of the Faculty of History of SamSU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4717474>

### ARTICLE INFO

Received: 17<sup>th</sup> April 2021  
Accepted: 21<sup>nd</sup> April 2021  
Online: 23<sup>rd</sup> April 2021

### KEY WORDS

*Sughd, Nakhshab, Kesh, Ibn Khawqal, Zarafshan.*

### ABSTRACT

*The article reveals the historical-geographical and administrative structure of the Nakhshab dynasty of Sughd and the internal relations of the dynasties. The article also discusses the issue of Nakhshab's separation from Kesh and its historiography.*

## ILK O'RTA ASRLAR NAXSHABNING GEOGRAFIK TUZULISHI VA KESH DAN ALOHIDALIGI MASALASI

Qurbonova Maryam<sup>1</sup>

<sup>1</sup>SamDU Tarix fakulteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasida 2-kurs magistri

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 17-aprel 2021  
Ma'qullandi: 21-aprel 2021  
Chop etildi: 23-aprel 2021

### KALIT SO'ZLAR

*Sug'd, Naxshab, Kesh, Ibn Xavqal, Zarafshon.*

### ANNOTATSIYA

*Maqolada Sug'dning Naxshab hukmdorligining tarixiy-geografiyasi va ma'muriy tuzulishini hamda hukmdorliklarning ichki munosabatlarini ochib berildi. Maqolada Naxshabning Keshdan alohidaligi masalasi va uning tarixshunosligiga ham to'xtalib o'tilgan.*

Ilk o'rta asrlar Sug'dning Naxshab hukmdorligi dastlab Kesh tarkibida bo'lib, keyinchalik alohida ajralib chiqib mustaqil maqomga ega bo'lgan. Naxshab – Qarshi vohasida, Qashqadaryoning quyi oqimi bo'ylarida joylashgan o'rta asr shahri va viloyati nomi bo'lib, Naxshab shahri Qarshi shahridan 8 km shimoliy-g'arbdagi Shulluktepa shahar xarobasi o'rnida bo'lgan. Milodiy VII-VIII asrlarda Naxshabda ot tasviri, G - belgisi va turkiy yuz

tuzulishdagi hokim rasmi tushirilgan mis tangalar zarb qilingan. VIII asrning 2-yarmidan bu tangalar fels deb atalgan. Arablar istilosidan so'ng Naxshab viloyatning ma'muriy markazi bo'lgan. Naxshab o'rta asrlarda 3 qismdan – ark, shahriston va raboddan tashkil topgan, mudofaa devori bilan o'ralgan, 4 ta darvozasi – Buxoro, Samarqand, Kesh va G'ubdin darvozalari bo'lgan.



Quyida Qashqadaryodagi Naxshab shahrining Eftaliylar hukmdorining qarorgohlaridan biri bo'lganligi Janubiy Sug'dning (Qashqadaryo vohasi) siyosiy mavqeyi oshishiga olib kelgan omillardan biri bo'lganligini ta'kidlash lozim. Voha hududi orqali qadimdan Buxoro va Samarqand Sug'didan Janubiy-Sharqiy Eron, Afg'oniston va Hindistondagi savdo shaharlariga olib boruvchi yo'llar o'tgan bo'lib, bu karvon yo'llari yo'nalishlarini o'rganish Janubiy Sug'd va undagi mulklar, makonlarning joylashuviga xos xususiyatlarni va chegaralarini, tarixiy geografik o'rnini aniqlashtirishda muhim ahamiyatga egadir. Shu bois ushbu masalalarga to'xtalib o'tish lozim.

Samarqand va Buxorodan keluvchi yo'llar quyida Qashqadaryoning yirik shahri Naxshabda tutashgan. Bu davrga mansub Xitoy manbalarida (Bey shi, Suy shu, ushbu ikkala yilnomada keltirilgan ma'lumotlar Tan shu yilnomasida takrorlanadi) Nashebolo deb keltirilgan bu shahardan Amudaryoning o'rta oqimidagi kechuvlarga (Kalif, Kerki, Burdaliq) yoki Subah, G'uzor, Temir Darvoz orqali Termizga borilgan (Ilk o'rta asrlarga kelib, Yerqo'rg'on o'rnidagi ko'hna shahar xarobaga aylangach, voha markazi Qala'i Zahoki Moron yodgorligi o'rnida bo'lgan Naxshab shahriga ko'chgan). Samarqanddan janubga ketuvchi asosiy yo'llarning bir yo'nalishi hozirgi Ko'kdala dashtlari va Qo'ng'irtog'ning shimoliy yonbag'irlari orqali o'tgan<sup>1</sup>.

Bu hududda ilk o'rta asrlarda o'troq makonlar kam uchrab, asosan ko'chmanchi chorvador qabilalarning qishlik qarorgohlari, quduqlar mavjud bo'lib, ular Samarqand – Naxshab yo'lining

muhim bekatlari sifatida ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Shu bilan birga vohadagi qadimgi yo'llarni o'rganish davomida to'plagan ma'lumotlarimiz Samarqand – Naxshab oralig'idagi dashtlarda ilk o'rta asrlardayoq yirik istehkomlar ko'rinishidagi qo'rg'onlar paydo bo'lganligini ko'rsatmoqda. Bunga misol tariqasida Ko'kdaladan 20 km.cha g'arbda joylashgan Hazorbuqa va Qoratepa yodgorliklarini ko'rsatish mumkin. Samarqand – Qarshi temir yo'lidan 1,5-2 km. cha g'arbda, Olatun temir yo'l bekatiga yaqin joyda joylashgan Hazorbuqa va Qoratepa yodgorliklari XX asrning 70-yillarida Qarshi arxeologik tadqiqotlar ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan<sup>2</sup>.

Tadqiqotchilarning fikricha, bu yodgorlikka mil. III-IV asrlarda asos solingan. Bu yodgorliklar mahalliy chorvadorlarning qishlik qarorgohlari hamda Samarqand – Naxshab savdo yo'lining muhim oraliq bekatlari sifatida ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu makonlarning geografik o'rnini chorvador qabilalarning joylashuvi, qishlik qarorgohlarini va yaylovlarini aniqlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Samarqandni janubdagi xalqaro savdo markazlari bilan bog'lovchi yo'l ham qadimdan Qashqadaryo vohasi orqali o'tgan. Ularning eng muhimi va faol foydalanilgani Samarqand – Nasaf yo'nalishi bo'lgan. Samarqanddan Jom dashti orqali Nasafga kelgan yo'l bu yerda bir necha tarmoqqa bo'lingan. Bir yo'nalishi Buxorodan kelgan yo'lga qo'shibil Subah, Kindik qishlog'i, Temir Darvoza orqali Termizga olib borgan<sup>3</sup>. Kindik qishlog'i Nasafdan va Keshdan

<sup>2</sup> Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Академия, 2008. – Б. 127.

<sup>3</sup> Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Академия, 2008. – Б. 127; Бартольд В.В. Туркистан в эпоху монгольского нашествия... – С. 191; Лунина С.Б. Культурные и торговые связи средневековых городов и поселений долины Кашкадарьи с сопредельными территориями // Культурные связи народов Средней Азии и Кавказа. Древность и средневековье. – М., 1990. – С. 103.

<sup>1</sup> Массон М.Е. Столичные города в низовьях Кашкадарьи с древнейших времен до наших дней. – Ташкент: Фан, 1973. – С. 24; Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах ... Ч. II. – С. 273.



3 kunlik yo‘l masofasida bo‘lib, bu yerda Samarqanddan Kesh orqali keluvchi savdo yo‘li Nasaf – Termiz savdo yo‘liga qo‘shilgan. Samarqanddan Nasaf orqali Amudaryodagi kechuvlarga (Kelif, Kerki, Amul) ham borilgan.

Samarqanddan, shuningdek, Jom cho‘li – Chiroqchi – Huzar (G‘uzor) yo‘nalishi orqali Temir darvozaga va Chag‘oniyonga (Surxon vohasiga) chiquvchi o‘rta yo‘l ham bo‘lgan. Qashqadaryoning o‘rta oqimi o‘ng qirg‘og‘idagi Oltinboshtepa va Chandaraktepa nomlari bilan saqlanib qolgan yodgorliklar bu yo‘nalishni aniqlashtirishga yordam beradi<sup>4</sup>.

Janubiy Sug‘dda, shuningdek, Buxorodan to‘qqiz kunlik masofada bo‘lgan Amudaryoning chap sohilidagi Kelif va Kerki shaharlariga eltuvchi yo‘llar tizimida Kasbi va Bazda, Iskifagn, Kesh va Naxshab oralig‘ida Navkad Quraysh, Oltintepa kabi hunarmandchilik markazlari hamda ko‘plab qishloqlar rivoj topadi. Topilmalar va yodgorliklarning tarixiy-geografik joylashuvi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar bu yodgorliklar asosiy qismining iqtisodiy rivojini birinchi navbatda dehqonchilik xo‘jaligi tashkil etganligini tasdiqlaydi.

Ilk o‘rta asrlarda ham Turk xoqonligining ikki yirik shahri Buxoro va Samarqandni Xuroson va Hindiston bilan bog‘lovchi tranzit savdo yo‘llari Qashqadaryo vohasi orqali o‘tardi. Bu yo‘llar bo‘yida joylashgan shahar va qishloqlar vohaning tarixiy geografik chegaralarini aniqlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababali bu yo‘nalishlarni ko‘rib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Bu davrda vohaning bosh shahri hisoblangan Nasaf haqida manbalarda

ko‘plab ma‘lumotlar keltiriladi. Qashqadaryo vohasining ikkita bosh Xususan, Chandaraktepa (IX-XIII asr boshlari) Qashqadaryodagi kechuvini nazorat qiluvchi muhim manzil hisoblangan. Quyida Qashqadaryoda yangi shaharga asos solinadi. Mahalliy aholi Naxshab deb atagan bu shaharni arablar o‘z talaffuzlariga moslab Nasaf deb nomlanganlar.

Shaharning rivojlangan davri X–XII asrlarga to‘g‘ri keladi. Nasaf shahri (bu shahar mo‘g‘ullar bosqinidan so‘ng xarobaga aylangan), arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra, Qarshidan 8 km. shimoli-g‘arbdagi Shulluktepa yodgorligi o‘rnida bo‘lgan. Shahri - Nasaf va Keshni bog‘lovchi ichki savdo yo‘li ilk o‘rta asrlarda Qashqadaryoning chap qirg‘oqlari bo‘ylab o‘tgan. Bu yo‘nalishda Zuhratepa, Qamaytepa, Oltintepa, Kishmishtepa va boshqa yodgorliklar o‘rganib chiqilgan<sup>5</sup>.

Bu davrda Buxoro – Nasaf yo‘nalishi (30 farsax) Qorachun, Miyonqal, Maymurg‘ orqali o‘tgan bo‘lib, uni karvonlar 4 kunda bosib o‘tishgan<sup>6</sup>. Nasafda Buxorodan keluvchi yo‘l tarmoqlanib, Balxga quyidagicha: Nasaf – Subah – Kindik qishlog‘i – Temir Darvoza – Termiz – Balx yoki Nasaf – Kelif – Balx yo‘nalishlarida borish mumkin edi. Amudaryoning o‘rta oqimidagi muhim kechuvlardan bo‘lgan Kelif Termizdan 2 kunlik yo‘lda, Balxdan 18 farsax uzoqlikda joylashgan edi.

Arab manbalarida, bu kechuv nomi bilan ataluvchi Kelif shahri Amudaryodagi daryoning har ikki tomonida joylashgan yagona joyligi qayd etiladi. Nasafning g‘arb tomonida Kaspi (4 farsax) va Bazda qishloqlari (6 farsax) joylashgan bo‘lib, ular ilk o‘rta asrlarda Naxshab mulkining g‘arbiy

<sup>4</sup> Лунина С.Б. Города Южного Согда ... – С. 35-36.

<sup>5</sup> Камолиддин Ш.С. К вопросу об этнической ситуации // История Узбекистана в археологических и письменных источниках. – Ташкент: Фан, 2005. – С. 233

<sup>6</sup> Бартольд В.В. Туркистан в эпоху монгольского нашествия ... – С. 191.



chegaralarida joylashgan edi. Kaspi arman manbalarida mustahkam qo'rg'on sifatida qayd etiladi. Sosoniylar davrining mashhur sarkardalaridan biri Bahrom Chubin Turk hoqonligi yerlarini zabt etganda Balxdan barcha "Kushonlar yerini" Kaspiyga bo'lgan hududlarni qo'shib bo'ysundirganligi manbalarda yozib qoldirilgan<sup>7</sup>.

X asrda, arab manbalariga ko'ra, Kaspi Nasafdan ham kattaroq shahar bo'lgan. Naxshabning g'arbiy qismida joylashgan Bazda shahri ham Janubiy Sug'dning muhim mulklaridan biri bo'lgan. Suv manbalari yetarli bo'lmasa-da, Bazda atrofidagi mulklarda dehqonchilik rivojlangani, aholi ekinlarini quduq suvlari bilan sug'orishi manbalarda aks etgan. Bazda shahriga mil. era boshlarida asos solingan. Turk hoqonligi davrida Naxshab mulkining g'arbiy chegaralaridagi muhim istehkomlardan biri hisoblangan. Naxshabdan Bezdagacha bo'lgan masofa 40 km ni tashkil etgan<sup>8</sup>.

Bu shahar xarobalari Kuhna Fazli yodgorligi o'rnida bo'lgan. Kaspi va Bazda shaharlari o'zlarining qulay geografik holati tufayli Buxorodan Termiz, Balx va Xurosonning boshqa savdo shaharlariga o'tuvchi karvon yo'llari tizimida muhim o'rin tutgan. Manbalarda Buxorodan Kaspi orqali Termizga, Bezdagacha orqali Kelif kechuviga va Termizga (ular orasida Jiken, Ko'hna rabot, Said quduq'i, Bezdag, Horan Raboti, Buxoroliklar qishlog'i, Xorazmliliklar qishlog'i va Balxan kabi oraliq manzillar bo'lgan) boruvchi karvon yo'li haqida ma'lumotlar mavjud<sup>138</sup>. Karvonlar Buxorodan Bezdagacha bo'lgan masofani 4 kunda,

Buxoro – Kelif yo'lini esa 5 kunda bosib o'tganlar<sup>9</sup>.

Bu yo'nalish savdo karvonlarining yo'lini ancha qisqartirib, vaqt va yo'l xarajatlarini tejash imkonini berardi. Janubiy Sug'diyonaning asosiy suv manbai bo'lgan Qashqadaryo hamda uning chap irmog'i bo'lgan G'uzordaryo havzasidagi Kesh, Nakshipa (Ksenipa), Naxshab, Subah kabi shaharlar vohaning ichki va tashqi iqtisodiy aloqalarida katta o'rin tutgan. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, milodiy era boshlarida Yerqo'rg'on dan Qashqadaryoning o'ng qirg'og'i bo'ylab Beshtepa, O'ratepa, Qo'ziboy tepa, Shahri-Xaybar yoki Qorabayir tepa, Payshanbatepa kabi yodgorliklar orqali shimolga ketuvchi yo'llar, Nasaf (Shulluktepa), Kofirtepa, Qal'ai Zahoki Moron orqali G'uzor vohasiga ketuvchi yo'llardan foydalanilgan<sup>10</sup>. Bu davrda Sharqiy Qashqadaryoning bosh shahri bo'lgan Keshni Nakshipa (Yerqo'rg'on) bilan bog'lovchi yo'l vohaning ichki yo'llari tizimida bosh bo'g'in bo'lib qoldi

Xitoy manbalarida keltirilgan ma'lumotlarga e'tibor qilinsa, Naxshabning Kesh tarkibida bo'lganligini anglashiladi. Ammo Naxshab hukmdorlari qadimdan o'z nomlaridan tanga zarb etganliklari ma'lum. Xitoylik mualliflar Naxshabning ma'muriy chegaralarini keltirishda xatolikka yo'l qo'yishgan. Ularda Naxshab Eron bilan chegaradosh deb keltiriladi. Balki, bu o'rinda yilnoma mualliflari bir muddat Sug'dga Amudaryo orqali chegardosh bo'lgan Sosoniylar davlatini nazarda tutishgandir.

Naxshab hukmdorlari ham o'z nomlaridan tangalar zarb qilgan bo'lib, ushbu tangalar kam o'rganilgan. Qashqadaryo hududidan 1953 yilda Qarshi shahridan 3 km. sharqda joylashgan milodiy III-IV asrlarda

<sup>7</sup> Камалидинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX – начала XIII вв. – Ташкент: Узбекистан, 1996. – С. 56.

<sup>8</sup> Камалидинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX – начала XIII вв. – Ташкент: Узбекистан, 1996. – С. 58

<sup>9</sup> Бартольд В.В. Туркистан в эпохи монгольского нашествия ... – С. 190-191

<sup>10</sup> Бартольд В.В. Туркистан в эпохи монгольского нашествия ... – С. 190-191



oid bugungi Chimqo'rg'on suv ombori atrofidagi Pirmat bobo-tepa, Qo'shtepa, Sho'rtepa va Ovultepa yodgorliklaridan topilgan tangalar orasida "sherni mag'lub etayotgan hukmdor" tasviri tushirilgan tangalarning ushbu hukmdorlik tarixi bilan bog'liqligi xususida qarashlar mavjud<sup>11</sup>.

Sug'dshunos V.A. Livshisning ta'kidlashicha, O.I. Smirnovaning ushbu tangalardagi sug'diy yozuvni "kushoniy, kushonga oid" talqin etishi S.K. Kabanovning Qashqadaryo vohasida so'nggi kushonlarning manzilgohlari bo'lganligi to'g'risidagi taxmini ilgari surishiga sabab bo'lgan edi<sup>12</sup>. Dastlab xioniylar so'ngra kidariy va eftaliylar tarkibiga singib ketgan kushonlar manzilgohlarining Sug'dning Naxshab hukmdorligi hududida bo'lganligi ehtimoli ham yo'q emas. Lekin ma'lumot bahsli va isbot talab. Bundan tashqari tangalardagi jumlaning "kushoniy" yoki "kushonga oid" deb talqin qilinishi Janubiy Sug'ddagi so'nggi Kushon hukmdorlariga taqlidan tanga zarb qilinganligidan darak berishi mumkin. Chunki, Markaziy Sug'dda Xitoy ta'sirida tanga zarb etilgani kabi Janubiy Sug'dda kushonlarga taqlidan tanga zarb etilgandir.


Tangada aynan kimning tasviri aks ettirilganligini tadqiqotchilar quyidagicha izohlashga harakat qiladilar. Agarda tanga turklarning eftaliylar ustidan g'alabaga erishguniga qadar (563-567) zarb qilingan bo'lsa, u holda tangadagi hukmdor eftaliy, aks holda esa tangadagi shaxs Turk xoqonligining Naxshabdagi vassallaridan birining tasviri bo'lishi mumkin. Lekin yuqorida kushonlar bilan bog'liq holda keltirilgan ma'lumotlar tangadagi hukmdorning xoqonlikning Naxshabdagi vassali emas balki, undan

oldingi davrlarga oid ekanligi haqida fikr yuritishga imkon beradi.

Ushbu tangalarni tahlil qilgan S.K. Kabanovning fikricha, tangalardagi hukmdor eftaliy bo'lib, u tojsiz tasvirlangan. Bu esa o'sha davrdagi Naxshab hukmdorlarining eftaliylar yuqori sulolasidan bo'lmagan degan taxmini ilgari surishga asos beradi. Bu esa mazkur davrda Naxshabda mahalliy hukmdorlar hukmronlik qilganligidan dalolat beradi<sup>13</sup>.

Tangadagi sug'diy *βrz* ("uzun") iborasi ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, hukmdori unvoniga nisbatan emas balki shaxsiy ismga xosdir<sup>14</sup>. Agarda bu iborani shaxsiy ism deb hisoblaydigan bo'lsak, u holda tangada Naxshabni boshqargan noib ekanligini borasidagi fikr yanada oydinlashadi.

Milodiy VII-VIII asrning boshlarida zarb qilingan Naxshab tangalarining ma'lum qismini bir tomonida "hukmdor" tasviri, bir tomonida esa "ot" tasviri va uning atrofida sug'diy jumlar ("qut (sohibi) hukmdor") aks etgan tangalar tashkil etishini ko'rish mumkin<sup>15</sup>.

Naxshab tangalarining boshqa guruhida esa bir tomonida ot tasviri va yozuv (*βyy γwβ* - "ilohiy hukmdor"), ikkinchi tomonida esa  shaklli tamg'a va uning ustida yozuv o'rin olgan. Mazkur yozuvni tadqiqotchilar *'skndk* - *aškandak* shaklida o'qishgan<sup>16</sup>. O.I. Smirnova bu so'zni dastlab "xshikatlik", "Xshikatga tegishli" deb talqin qilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, arab manbalarida 730-yillarda Nasaf ispahbodi sifatida tilga olingan al-Ashkandning ismi mazkur tangada

<sup>11</sup> Кabanov С.К. Нахшабские монеты V-VII вв. // ВДИ. 1961. – №. 1 (75). – С. 137.

<sup>12</sup> Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. – СПб.: 2008. – С. 277.

<sup>13</sup> Кabanov С.К. Нахшабские монеты V-VII вв. ... – С. 134.

<sup>14</sup> Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика. ... – С. 277.

<sup>15</sup> Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза. – М.: Наука, 1981. – С. 343-344.

<sup>16</sup> Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – М.: Наука, 1970. – С. 25.



aks etgan<sup>17</sup>. Al-Ashkand Turk xoqonining sodiq kishilari sifatida tilga olinib, u Nasaf “ispahbod”i deb keltiriladi<sup>18</sup>. Forscha “sipoh”, “sipahbod” soʻzlari “qoʻshin boshligʻi”, “harbiy qoʻmondon” maʼnolarini anglatadi<sup>19</sup>. “Sipahbod” yoki “ispahbod” unvonli hukmdorlarning Sugʻddan tashqarida ham qoʻllanilganligi maʼlum. Masalan, Eronning tarixiy viloyati boʻlgan Tabariston hukmdorlarining unvoni “ispahbod”lar boʻlib, ular Ispahbadon shahrida yashaganlar<sup>20</sup>. Ammo Eron va Naxshab ispahbodlari orasida aloqa-lar boʻlganligi yoki aksincha ekanligi maʼlum emas.

Shu oʻrinda eʼtibor qaratilishi lozim boʻlgan yana bir masala shuki, Naxshabda ham boshqaruv tepasida Keshdagi kabi harbiylar (axurpatlar) – ispahbodlar turgan. Ehtimol, konfederasiya ixshidlari oʻz mamlakatlarining chegaralarini kuchaytirish va barqaror ushlab turish uchun harbiylar boshqaruvini kuchaytirgandirlar.

Xitoy yilnomalarida 738 yilda Turgash hukmdori Tuxosyan Qut-choʻrga qarshi kurashgan turgashlar lashkarboshisi Bagʻa Tarxonning yonida joy olgan Shi (Kesh) hukmdorining nomi Sʻyszinti (Siginti) shaklida keltiriladi<sup>21</sup>. Mazkur hukmdor ismining asli *Ashkand* boʻlib, u ayni vaqtda Naxshab hukmdori boʻlgan. Xitoy yilnomalarida uning Kesh hukmdori sifatida tilga olinishi oʻsha paytda mazkur hukmdorning yaqin qoʻshnilari ustidan oʻz mavqeyini oshirganligi bilan bogʻliq.

Ashkand Turk xoqonligi bilan faol aloqalarda boʻlgan. Tabariy bergan maʼlumotlarga koʻra, Naxshab ispahbodi al-Ashkand Turk xoqonligi qoʻshinlariga yordam berib, arablarning Amudaryodan oʻtishlariga qattiq qarshilik koʻrsatgan<sup>22</sup>. Bu davrda al-Ashkand Kesh va Naxshab hukmdori sifatida tilga olinadi. Bu esa arablar bosqini arafasida Naxshab Kesh tarkibida boʻlganligi taxminini kuchaytiradi<sup>23</sup>. Naxshabda turkiy qiyofali hukmdor tasvirining uchrashi oʻsha davr tarixiy voqeyeliklari bilan bogʻliq. Xususan, 560-yillarda Naxshab atrofida Eftaliylarga qarshi asosiy zarbani bergan Turk xoqonligi bu hududda oʻz qoʻshinlarini joylashtiradi<sup>24</sup>. Turk xoqonligining Sugʻd konfederasiyasini egallashi yoʻlidagi hal qiluvchi jang ham Naxshabda boʻlganligi haqidagi taxminlar bor. Natijada Naxshabning boshqaruv markazi Yerqoʻrgʻondan janubroqqa (*hoz. Shulluktepa*) koʻchadi va yangi sulola vakillari bu yerdan turib vohani boshqara boshlaydilar. Arxeolog olim R. Sulaymonov fikricha, mazkur sulola vakillarining kelib chiqishi turkiy boʻlgan<sup>25</sup>. Ushbu sulola oʻzlaridan oldingi mahalliy suloladan farqli tangalar zarb qila boshlagan va ularda oʻzlariga xos anʼanalarni aks ettirishgan deb xulosa qilish asosli.

<sup>17</sup> История ат-Табари / Пер. с араб. В.И. Беляева с допол. О.Г. Большакова, А.Б. Халидова. – Ташкент: Фан, 1987. – С. 225, 238, 239, 244, 245.

<sup>18</sup> История ат-Табари. ... – С. 244.

<sup>19</sup> Форсча-Ўзбекча ўқув лугати / тузувчилар А. Рустамов, Қ. Каримов, З. Умаров. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – Б. 99.

<sup>20</sup> Бартольд В.В. Работы по исторической географии и истории Ирана / Соч. VII. – М.: Наука, 1971. – С. 221-222, 443.

<sup>21</sup> Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turcs) occidentaux // Сб. Тр. Орхонской эксп. – СПб.: 1903. – Вып. 6. – С. 46.

<sup>22</sup> Истрия ат-Табари. ... – С. 225.

<sup>23</sup> Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. – Душанбе: Ирфон, 1989. Кн.1. – С. 316.

<sup>24</sup> Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turcs) occidentaux. ... – С. 228-229.

<sup>25</sup> Сулейманов Р. Древний Нахшаб. – Ташкент: Фан, 2000. – С. 69.



## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Массон М.Е. Столичные города в низовьях Кашкадарьи с древнейших времен до наших дней. – Ташкент: Фан, 1973. – С. 24; Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах ... Ч. II.
2. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Академия, 2008.
3. Бартольд В.В. Туркистан в эпоху монгольского нашествия... – С. 191; Лунина С.Б. Культурные и торговые связи средневековых городов и поселений долины Кашкадарьи с сопредельными территориями // Культурные связи народов Средней Азии и Кавказа. Древность и средневековье. – М., 1990.
4. Лунина С.Б. Города Южного Согда .
5. Камолиддин Ш.С. К вопросу об этнической ситуации // История Узбекистана в археологических и письменных источниках. – Ташкент: Фан, 2005.
6. Бартольд В.В. Туркистан в эпоху монгольского нашествия ..